



ARTICLE INFO

Received: 25th November 2022

Accepted: 04th December 2022

Online: 05th December 2022

KEY WORDS

Giperbilirubinemiya, gemolitik kasallik, neonatologiya, bilirubin, fototerapiya.

CHAQALOQLARDA SARIQLIKNING IMMUNOLOGIK HOLATI

Karomatova Fazolat Abdiqahhorovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7408760>

ABSTRACT

Yangi tug'ulgan chaqaloqlarda sariqlik- fiziologik yoki patalogik holat bo'lib, bunda chaqaloqlar qonida giperbilirubinemiya va teri rangi, ko'rinadigan shilliq qavatlarning sarg'ayishi bilan bola hayotining birinchi haftasida namayon bo'ladi. Ushbu maqolada yangi tug'ulgan chaqaloqlarda uchrovchi sariqlikning sabablari, oldini olish va immunologik holatlari haqida ma'lumot berilgan.

Giperbilirubinemiya (sariqlik) – bu qon tarkibidagi bilirubin miqdorining yuqoriligi va sariqlikning klinik ko'rinishidir.

Chaqaloqlardagi giperbilirubinemiya, ya'ni sariqlikka jiddiy qarash lozim. Sababi qondagi bilirubin miqdori oshib ketsa, natijada miyani shikastlashi va jiddiy funksional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Ko'pincha bu kasallik belgilarisiz rivojlanadi. Bolaning umumiy ahvoli yaxshi bo'ladi. Jigar va qorataloqda o'zgarishlar sezilmaydi. Go'dakning peshob va axlat analizlari ham odatdagidek bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda esa ushbu kasallik uyquchanlik, ishtahaning pasayishi kabi belgilar bilan markaziy asab tizimini shikastlashi kuzatiladi. Sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarda hayotining ikkinchi, uchinchi haftalariga borib sariqlik belgilari yo'qoladi.

O'z vaqtida tug'ilgan chaqaloqlarda 3-4-kundan to 14 kungacha, chala tug'ilgan chaqaloqlarda esa 24 kungacha fiziologik

sariqlik kuzatilishi mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloqda 24-36 soat davomida sariqlikning dastlabki belgilari namoyon bo'ladi. Shu sababli chaqaloq hayotining birinchi kunlarida paydo bo'ladigan har bir sariqlikni jiddiy tarzda qabul qilish va zudlik bilan bolani tekshirish va davolash zarur.

Sariqlik – terining va ko'z oqining sarg'ayishidir. Sariq rang eski qizil qon hujayralarining parchalanishi natijasida hosil bo'lgan bilirubin tufayli kelib chiqadi, u jigarda "qayta ishlangandan" so'ng safro bilan birga ajraladi va tanadan axlat orqali chiqib ketadi. Ushbu me'yordagi jarayon bir qator sabablarga ko'ra buzilishi mumkin, bilirubin darajasining yuqoriligi chaqaloqlar sariqligiga olib keladi. Sariqlikdan tashqari, chaqaloq ba'zan uyquchanlik yoki ovqatlanishda qiyinchiliklarga duch keladi, siydigining rangi to'qroq bo'ladi.

Bu borada neonatolog – shifokorning birinchi vazifasi – sariqlikning belgisi,



uning fiziologik yoki patologik sariqlik ekanligini aniqlashdan iborat. Buning uchun onaning boshdan kechirgan kasalliklari, qon tahlili, oilaviy kasalliklar tarixi, bolaning ota-onasining qon guruhini aniqlash juda muhim vazifalardan biridir. Chaqaloqdagi sariqlikning namoyon bo'lish shakli ma'lum bir ketma-ketlikda bo'ladi. Sariqlikning tezligi va ortib borish jadalligini to'g'ri aniqlash lozim. Bu fiziologik sariqlikni patologik sariqlikdan ajratish uchun ko'p jihatdan yordam beradi.

Agar sariqlik chaqaloq hayotining dastlabki kunidayoq tanasining turli qismlarida, hayotining ikkinchi kunida esa kaftlar va tovonlarda kuzatilsa, zudlik bilan fototerapiya shifokor tekshiruvini ostida amalga oshiriladi.

Agar bolaga o'z vaqtida va zarur yordam ko'rsatilsa, bu belgilar o'tib ketishi mumkin. Biroq, o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa, kasallikning og'ir hollarida bilirubinning yuqori ko'rsatkichi yangi tug'ilgan chaqaloqning miyasini shikastlashi mumkin. Oqibatda esa bemorning nogironligi va hatto o'limiga olib keluvchi sariqlikni keltirib chikarishi mumkin.

Sariqlik sabablari

Chaqaloqlardagi fiziologik sariqlik yetilmagan jigar bilirubinni qayta ishlashga va chiqarib yuborishga qodir emasligi natijasida kelib chiqadi. Odatda ikkinchi yoki uchinchi kuni chaqaloqning yuzi va ko'z oqi sarg'ish rangga kirganini ko'rish mumkin. Sariqlik yangi tug'ilgan chaqaloqning boshidan / yuzidan boshlanadi, agar uning darajasi oshib ketsa, sariqlik tanada va qo'l-oyoqlarda ham kuzatilishi mumkin. Agar chaqaloqning faqat yuzi sarg'aysa, tanasi va oyoqlari

sarg'aygan holatga qaraganda unda bilirubin darajasi ancha past bo'ladi.

Ona sutining sariqligi sutda modda almashinuvini va bilirubinning chiqarilishini vaqtincha buzadigan ingibirlovchi moddalar mavjudligi tufayli yuzaga keladi. Odatda bu tug'ilgandan bir necha kun o'tgach sodir bo'ladi, garchi u bir necha hafta davom etishi mumkin bo'lsa ham, chaqaloqqa zarar yetkazmaydi va o'z-o'zidan o'tib ketadi. Bu vaqt ichida emizishni to'xtatish shart emas va bunday qilish tavsiya etilmaydi!

Ona va bolaning qon guruhi mos kelmasligi tufayli kelib chiqadigan sariqlik (yangi tug'ilgan chaqaloqlardagi gemolitik kasallik) boshqa laboratoriya ko'rsatkichlari bilan birga keladi va davolanishni talab qiladi.

Sariqlikning kam uchraydigan sabablariga yangi tug'ilgan chaqaloqdagi infeksiya, moddalar almashinuvining tug'ma buzilishi yoki o't yo'llarining nuqsonlari kiradi. Bular jiddiy, lekin, yaxshiyamki, juda kam uchraydigan holatlardir. Ba'zan neonatal sariqlikni asosan viruslar keltirib chiqaradigan, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda juda kam uchraydigan yuqumli gepatit bilan adashtirishadi.

Bilirubin miqdorini o'lchash

Bilirubinni o'lchash yangi tug'ilgan chaqaloqning qon zardobi yoki teri orqali amalga oshiriladi. Teri orqali o'lchashda ba'zi cheklovlar mavjud bo'lsa-da, u chaqaloqlar uchun og'riqsiz va qulay o'lchov usuli bo'lib, fototerapiya olmagan bolalarda ishonchli natijalar beradi. Agar ko'rsatkichlar sezilarli darajada yuqori yoki bolada boshqa belgilar bo'lsa, qo'shimcha laboratoriya tekshiruvlari o'tkaziladi.

Agar sariqlik fiziologik bo'lsa, u nima uchun davolanadi?



Yangi tugʻilgan chaqaloqlarda sariqlik koʻpincha fiziologik omillar tufayli yuzaga kelsa-da, baʼzan koʻrsatkichlar shu qadar yuqori boʻladiki, u yangi tugʻilgan chaqaloq uchun katta xavf tugʻdiradi va davolanishni talab qiladi. Fototerapiya bilirubin darajasini samarali kamaytiradi va yangi tugʻilgan chaqaloqlar uchun xavfsizdir. Agar bilirubin darajasi juda yuqori boʻlsa va boshqa buzilishlar bilan birga kuzatilsa, kerakli muolaja qoʻllanadi.

Sariqlikning oldini olish

Emizish – juda muhim profilaktik choradir! Ona suti yangi tugʻilgan chaqaloqni yetarli suyuqlik va energiya bilan taʼminlabgina qolmay, tarkibidagi moddalari tufayli jigarida bilirubinni “qayta ishlash” jarayonini tezlashtiradi. Ogʻiz suti ichak harakatini va ichakning kerakli probiotik bakteriyalar tomonidan oʻzlashtirilishini ragʻbatlantiradi, bu esa sariqlik paydo boʻlishiga toʻsqinlik qiladi.

Suvsizlanmagan yangi tugʻilgan chaqaloqqa suv yoki glyukoza eritmasini berish sariqlikning oldini olmaydi yoki uni yengillashtirmaydi. Hech qachon chaqalogʻingizni toʻgʻridan toʻgʻri tushadigan quyosh nurlari ostida qoldirmang! Quyosh nuri sariqlikni davolashda samara bermaydi, aksincha, yangi tugʻilgan chaqaloqning nozik terisi uchun zararli va xavfli boʻlishi mumkin.

Etiologiyasi[tahrir | manbasini tahrirlash]
Voyaga yetgan odamda eritrotsitkar doimiy ravishda yangilanadi, qarigan hujayralar jigar tomonidan chiqariladigan bilirubin hosil qilish uchun metabollanadi. Kichkintoyda jigar hali toʻliq ishlamaganligi uchun fetal gemoglobinni almashtirish jarayonida hosil boʻlgan bilirubin hayotning uchinchi kundan boshlab teri va shilliq pardalarga sargʻish rang beradi.

Tananing ferment tizimlari toʻliq ishlay boshlaganda, bolaning teri rangi normal holatga yaʼni oʻzining och pushti rangiga qaytadi. Terining sargʻayishi odatda uchinchi yoki toʻrtinchi kuni eng aniq ifodalanadi va odatda hayotning 7-8 kunida yoʻqoladi[1].

Davolash:

Yangi tugʻilgan chaqaloqlarda sariqlik fiziologik holat (kasallik emas) boʻlganligi sababli, aksariyat hollarda davolanish talab etilmaydi.

Bolaning sogʻligʻi haqida quyidagi hollarda xavotir yuzaga kelishi kerak:

- bilirubin darajasi 256 mkmol/L dan (18 mg/dL) oshsa;
- hayotning birinchi kunida sariqlik qayd etilsa;
- laboratoriya parametrlarining juda tez oʻsishi kuzatilsa;
- sariqlik ikki haftadan ortiq davom etsa;
- bola oʻzini yomon his qilsa.

Ushbu belgilar uchrashi mumkin boʻlgan kasallikni aniqlash uchun sabab hisoblanadi: eritrotsitlarning parchalanishi, jigar kasalliklari, infeksiyalar, gipotireoz yoki patologik metabolik kasalliklar.

Davolash zaruriyati bilirubin darajasiga, bolaning yetuklik darajasiga va sariqlikning asosiy sababiga bogʻliq.

Davolash tez-tez ovqatlanish, fototerapiya bilan amalga oshiriladi. Erta tugʻilgan chaqaloqlar uchun yanada intensiv davolash talab etiladi.

Bolada 1 oylik bilirubin normasi 45 mkmol /l gacha boʻladi.

Fototerapiya

Fototerapiyani tayinlash uchun koʻrsatma bilirubinning oʻziga xos darajasi, yetuklik darajasi, yangi tugʻilgan chaqaloqning sogʻligʻiga va bolaning yoshiga qarab oʻzgaradi. Shu bilan birga, 14 kungacha boʻlgan har qanday yangi tugʻilgan



chaqaloq plazmasida umumiy bilirubin 220 mkmol/L (21 mg/dl) dan yuqori bo'lsa, fototerapiya o'tkazilishi kerak.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda neonatal sariqlikni yorug'lik bilan davolash mumkin, bu trans-bilirubinni suvda eriydigan sis-bilirubin izomeriga aylantiradi, u siydik va najas orqali yaxshiroq chiqib ketadi.

Amaldagi fototerapiya ultrabinafsha nur terapiyasi emas, balki ma'lum bir chastotaning ko'k nuridir. Jarayon davomida bolaning ko'zlari mahkam yopiq bo'lishi kerak.

Bolaning ko'zi bog'langan bo'lishi kerak.

Fototerapiyadan foydalanishni birinchi marta Angliyaning Esseks shahridagi Rochford kasalxonasida tasodifan kashf etilgan, o'shanda hamshiralar quyosh nurida bo'lgan chaqaloqlarda sariqlik kamroq bo'lishini va patologoanatomlar quyoshda qolgan qon flakonlarida kamroq bilirubin borligini payqashgan. Randomize klinik sinov natijalari 1968-yilda Pediatriya jurnalida nashr etilgan; bu amaliyotning tarqalishi uchun yana o'n yil kerak bo'ldi.

References:

1. А.М.Запруднов, К.И.Григорьев. Наука о детских болезнях. Москва. 1997.
2. J.Eshqobulov; AMahmudov. Bolalar kasalliklari fani. -T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1993.
3. Н.П.Шабалов. «Неонатология». Санкт-Петербург, 1995.
4. K.Svyatkina, E.V.Belogorskaya, N.P.Kudryavsev. Bolalar kasalliklari fani. -T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1990.